FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil **DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a175**

UO‘K: 821.512.133

“DEVONI HIKMAT”DA ISHQ VA OSHIQLIK TALQINI

INTERPRETATION OF LOVE AND ROMANCE IN "DEVONI HIKMAT"

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЮБВИ И РОМАНТИКИ В «ДЕВОНИ ХИКМАТ»

Mannopov Islombek Sultonaliyevich[1]
[1]Farg‘ona davlat Universiteit, f.f.b.f.d.(PhD),

Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o‘g‘li[2]
[2]Farg‘ona davlat universiteit tayanach doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari mazmun va shakliy jihatdan tahlil qilinadi. Hikmatlardagi obrazlar tahlilga tortilgan bo‘lib badiiy mahorat nuqtayi nazaridan ham o‘rganilgan . Hikmatlarning shakliy jihatlari o‘rganiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlari badiiyati yuzasidan nazariy va tahliliy fikrlar beriladi. Majoziy va haqiqiy ishq tasnifi va uning manbalari keltiriladi. Ishq mavzusidagi hikmatlar tahlil qilinib, may, soqiy, oshiq, ma’shuqa, piri mug‘on singari an’anaviy va majoziy timsollar aniqlanadi.

Abstract

In this article, the wisdom of Khoja Ahmed Yassavi is analyzed in terms of content and form. The images in the proverbs were analyzed and studied from the point of view of artistic skill. Formal aspects of proverbs are studied. Theoretical and analytical opinions are given on the art of Ahmad Yassavi's wisdom. The classification of figurative and real love and its sources are given. Proverbs on the topic of love are analyzed and traditional and figurative symbols such as May, Soqi, Ashik, Mashukha, Piri Mugon are identified.

Аннотация

В данной статье стихи - хикматы Ходжи Ахмеда Яссави анализируется с точки зрения содержания и формы. Образы в пословицах анализировались и изучались с точки зрения художественного мастерства. Изучаются формальные аспекты пословиц. Даны теоретические и аналитические заключения об искусстве мудрости Ахмада Яссави. Дана классификация образной и духовной любви и ее истоки. Анализируются стихи-хикматы на тему любви и выявляются традиционные и образные символы, такие как Май, Соки, Ашик, Машуха, Пири Мугон.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, hikmat, orif, tariqat, ishq,pir*
Key words: *mysticism, wisdom, scholar, sect, love, pir*
Ключевые слова: *мистика, мудрость, учёный, секта, любовь, пир.*

KIRISH

Tasavvuf olami – majoz va majoziy fikrlashga keng erk bergan o‘ziga xos murakkab bir olamdir. Majoziy obrazlar ustunlik qilgan she’rlarda esa shoirning o‘zi ko‘zlaganidan ham ancha ko‘p va keng mazmun aks etishi mumkin. Shu ma’noda tasavvuf ahli so‘z, ibora va tushunchalarning asl ma’nolarini o‘zgartirib, ya’ni ta’vil asosida ular orqali yangi – yangi ramziy mazmun va muddaolarni ilgari surishga intilganlar. Ularning istilohotida ramz – “so‘z zohirining tagida yotgan va tasavvuf ahlidan boshqa kishilar anglay olmaydigan yashirin ma’no erur”.

Tassavvuf olamining hayratlaridan bahramand bo‘lish uchun ikki jihatga ahamiyat berish zarur. Birinchisi, tasavvufiy hayotda yashash, ya’ni Hol maqomlaridan maqomlariga yuz burish. Ikkinchisi esa tasavvuf tilini, xususan, undagi istilohlarning ma’nolarini yaxshi bilishdir. Shu ikki jihat tasavvufshunoslikda ko‘p narsani hal qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

ADABIYOTSHUNOSLIK

Tasavvuf adabiyotiga doir ba’zi istilohlar to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinsa tasavvuf haqiqatlaridan bexabar she’rxonda e’tiroz tug‘dirishi tabiiy hol. Shuning uchun biz ham shu o‘rinda ilmiy ishimiz mavzusiga bog‘liq ayrim istilohlarning ma’nosiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Pir – so‘fiylik an’anasida tariqatning oliy yoki obro‘li rahnamolaridan biri; murid– murod ya’ni maqsadga intiluvchi odam; murod esa – Allohning vasli; boda, may – ilohiy ishq timsoli; jom, qadah – ilohiy ishq bilan to‘lgan qalb timsoli; soqiy – ilohiy ishq sharobini tutguvchi pir; so‘fiy – Iloh oshig‘i.

Tasavvuf ta’limotida ishqning asosan ikki turga bo‘linishi ilmiy manbalarda qayd etilgan:

1. Majoziy ishq
2. Haqiqiy ishq

Majoziy ishq insonning insonga va borliq olamga bo‘lgan sevgisidir. Bu ishq insonning ruhiy va aqliy quvvatiga tayanadi. Haqiqiy ishq esa insonning Allohga bo‘lgan cheksiz va pok muhabbatidir. Tasavvuf adabiyotida ishq haqida so‘z ketganda, shubhasiz, haqiqiy, ilohiy ishq nazarda tutiladi. Ammo ishqning ikki turini bir-biridan ayro qo‘yib ham bo‘lmaydi. Zero, olamni, odamni chinakam sevguvchi kishigina Yaratganga pok ko‘ngil bog‘lay oladi. Ishq so‘zi arabcha “ashqa” so‘zidan olingan bo‘lib, ashqa – chirmovuq o‘t kabi o‘ralib, yopishib o‘sadigan o‘simlik hisoblanadi. G‘azzoliyga ko‘ra, sevgining oliy darajasi ishq deyiladi. Yassaviy esa ishqni ham dard va ham darmon, ham azob va ham rohat, deydi.

Olim Ibrohim Haqqul Yassaviy ijodida oshiqlik talqinlariga to‘xtalar ekan: “Ishq faqat dard va quvonch, iztirob va umid, sadoqat va fidoiylik emas, balki doimiy bir ma’naviy-ruhiy harakat hamdir. Harakatdan nainki odam, olam ham o‘zgarib, yangilanib boradi. Shunga ko‘ra oshiq dunyoga boshqacha qaraydi va dunyoni butunlay boshqacha idrok etadi”-, deb yozadi. Shuningdek olim tasavvufda ishq – sevgining eng oxirgi va mukammal ko‘rinishi ekanligi, ishq maqomiga ko‘tarilgunga qadar oshiq yana yetti darajada qalb va ruhni kamolga erishtirishi kerakligini ta’kidlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Manbalarda keltirilishicha, tasavvuf ta’limotiga yagona Haqqa oshiqlik, ilohiy ishq tushunchasini Robiya Adaviya (714-801 y.y.) olib kirgan. Mashhur so‘fiy ayol Robiya Tangriga munojotlarida hamisha: —Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannatning ta'masida toat qiladigan bo‘lsam jannatingdan benasib et, agar do‘zaxingdan qo‘rqib ibodat qiladigan bo‘lsam, meni do‘zax o‘tida kuydir, ming-ming roziman! Ammo agar sening jamolingni deb tunlarni bedor o‘tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan benasib etma-, deya nola qilar ekan. Ko‘rinib turganidek, Haq ishqining majoziy ishqdan farqi bo‘lak. Xuddi shu ma’noni ifodalagan fikrlar Xoja Ahmad Yassaviy ijodida ham ko‘plab uchraydi.

O‘n beshimda hur-u g‘ilmon qarshu keldi,
Boshin urub, qo‘l qovshurub, ta’zim qildi,
Firdavs otlig‘ jannatidin mazhar keldi,
Diydor uchun borchasini qo‘ydim mano.

Ahmad Yassaviy hur-u g‘ilmonlar bilan birga yurishdan ham oldida ularning boshini egib qo‘l qovushtirib turishidan ham, hatto musulmonlarning chin orzusi bo‘lgan jannatga kirishdan ham voz kechmoqda. Bu voz kechishning asl sababini ham ko‘rsatib o‘tmoqda: bularning barchasini “Diydor uchun” qilmoqda. Ya’ni Haq diydorini barcha narsaga alishmoqda. Bundan bilishimiz mumkinki, Ahmad Yassaviy ham ishqi haqiqiyga yetisha olganlardandir.

Haqiqiy ishq – ruhni dunyoviy g‘uborlardan tozalaydigan, qalbga bir olov – nur bo‘lib kirib uni Parvardigor vasliga hidoyat etadigan qudrat, ma’rifat va haqiqatga oshno etuvchi, mis vujudni oltinga aylantiruvchi kimyodir. Oshiqlik esa -haqsevarlikning, ma‘rifatga shaydolikning oliy ko‘rinishi. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo‘lishi mumkin, ammo ishqda, oshiqlikda bu illat bo‘lmaydi. Faqat ishq kishini adabiyatga-baqo olamiga olib boradi.

Tasavvufiy istilohlarga ko‘ra ta’limot saboqlarini beruvchi shaxs – shayx, murid, pir, esho, xoja, mavlo, mavlono, mahdum kabi unvonlar bilan atalgan. Tasavvuf ilmidan saboq oluvchilar – murid, solik, ahli dil, ahli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan tanilgan. Tasavvuf ahlini ba’zan xalq orasida oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, orif, devona, ahli muhabbat va ahli suluk kabi nomlar bilan ham atab kelingan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, oshiqlik tasavvuf ta’limotidagi unvonlardan biridir. Imom G‘azzoliyda oshiqlik va oshiq ta’rifida shunday deyilgan: “Aytadilarki, haiqiqiy sevgi-muhabbat uch narsada bilinadi: birida – sevgan suyuklisining gapini boshqalar

gapidan ustun qo‘yadi. Ikkinchisida – sevuvchi suyganining suhbatini boshqalar suhbatidan a’lo biladi. Uchinchisida – sevgan suyganini mamnun etishni boshqalarni mamnun yuqori hisoblaydi”. G‘azzoliy oshiqlik belgilari sifatida yuqoridagi fikrlarni bayon etgan holda “oshiq kim?” degan so‘roqqa ulug‘lar suhbatidan na’muna keltirish orqali javob beradi: “Bir olimdan so‘radilar: “Oshiq deb kimga aytiladi va uning holi qanday bo‘ladi?” Olim javob berdi: “Insonlar bilan oz aloqada bo‘ladi. Ko‘proq Rabbi bilan yuzma-yuz qoladi. Ko‘rinishi sassiz-sadosiz, lekin uzluksiz tafakkur holida bo‘ladi. Qaraganda ko‘rmaydi, chaqirganda eshitmaydi, suhbat chog‘i hech narsani anglamaydi. Boshiga bir falokat tushsa, ezilmaydi. Och qolsa, ochligini his etmaydi. Ko‘rinishi pajmurdadir. Allohdan boshqasidan qo‘rqmaydi. Uzlatda Allohga munojot etadi. Dunyolik yuzasida dunyo ahli bilan olishmaydi”. Keltirilgan suhbatda G‘azzoliy chin ma’noda oshiqning mukammal siymosini ko‘radi. Tasavvufdagi oshiq ana shunday bo‘lmog‘i kerak.

Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”ida piri mug‘on atami ba’zi o‘rinlarda komil inson ma’nosida, ba’zi o‘rinlarda Payg‘ambar (S.A.V), yana ba’zida Alloh taolo ma’nosida ham ishlatiladi.

Piri mug‘on Haq Mustafo beshak biling,
Qayda borsang, vasfin aytib ta’zim qiling.

Bu o‘rinda Yassaviy Piri Mug‘on –Haq Mustafo deb atamoqda. Yana bir o‘rinda esa tasavvufda ilohiy ishqdan saboq beruvchi pir ma’nosini ifodalaydigan soqiy atamasini qo‘llamoqda. Bu to‘rtlikda Ahmad Yassaviy soqiy sifatida Rahmon egam deb aytyapti. Bilamizki, Rahmon Alloh taoloning 99 muborak ismlarida biridir. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, Ahmad Yassaviyga ilohiy ishq(may)ni eng buyuk soqiy (Rahmon egam) ichkizgan.

Rahmon egam soqiy bo‘lib may ichursa,
Ahli ayol xonumondin pok kechursa,
Vujudimdan Azozilni Haq qochursa,
Jurmi isyon girihlarin ochar, do‘stlar.

Ma’lumki, tasavvuf ta’limoti hamda tasavvuf she’riyatining asosi muqaddas islom dinining bosh kitobi Qur’oni Karim hamda Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning o‘gitlari, amallariga qurilgan. Shu ma’noda Xoja Ahmad Yassaviy hamda u zotning izdoshlari ijodi ham ushbu muqaddas manbalarga tayangan, kuch olgan, ularning she’r tiliga ko‘chib xalq orasiga yoyilishiga xizmat qilgan.

Ahmad Yassaviy ijodida ilohiy ishq va oshiq, oshiqlikning shart va talablari, asl oshiqning qanday fazilatlari bo‘lishi kerakligi tarannum etilgan hikmatlar talaygina. Uning oshiqlik vasf etilgan ayrim hikmatlari bugungi kunda ham xalqimiz orasida kuy-qo‘shiq, aytimlar tarzida yod olinib kelmoqda.

“Devoni hikmat”ning juda ko‘p o‘rinlarida oshiqlar uchun xos bo‘lgan, Payg‘ambar (S.A.V)dan sunnat bo‘lib kelayotgan amallar haqida fikrlar uchraydi. Eng ko‘p takrorlanadigan hikmatlardan biri bu:

Oshiqlarni sunnatidur tirik o‘lmak,
Eshtib, o‘qub, yerga kirdi qul Xoja Ahmad.

Yassaviy bu o‘rinda *tirik o‘lish* deganda, *mutu qobla anta tamutu* hadisini nazarda tutmoqda. Ya’niki, o‘lmasdan oldin nafsingni o‘ldir, demoqda. Inson tabiatida shaytonga xos bo‘lgan nafs, kibr-havo, takabburlik, manmanlik kabi illatlar mavjud bo‘ladi. Bu illatlardan forig‘ bo‘lish uchun sayri suluk riyozat chekmog‘i, mehnat tortmog‘i, nafsga qarshi shiddatli kurashmog‘i kerak bo‘ladi. Ayniqsa, manmanlik haqida *manmanlikni jazosini bergay tamuq* deydi. Bundan tashqari, nafsni yengish ham osonlikcha bo‘ladigan ish emas, solik bu yo‘ldan yolg‘iz o‘zi yurib o‘ta olmaydi. Buning uchun tolib, albatta, murshid etadigan tutishi kerak bo‘ladi. Uning buyurganlarini bajarishi, unga sarkashlik qilmasagina yo‘lning oxiriga yeta oladi.

Oshiq uchun eng muhim talablardan yana biri tavba qilishdir, deydi Ahmad Yassaviy. Solik o‘z gunohlari uchun to‘xtovsiz istig‘for aytmog‘i uni Haqqa yaqinlashtiradi, Ilohiy nurdan bahramand bo‘lishlariga sabab bo‘ladi.

Ujmoh mulkin ummon qullar tavba qilsun,
Tavba qilib, Hazratig‘a yovuq bo‘lsun.

Yassaviy oshiqlik yo‘li qanchalik og‘ir va mashaqqatli bo‘lmasin shoir o‘zi va boshqalarga mudom oshiqlik baxtini tilaydi. Bu yo‘lda Mansuri Hallojdek halok bo‘lishni oliy maqsad biladi. Bor vujudi va qalbi ila Yaratganga har ne qilganda ham oshiq qilishini so‘rab yolvoradi:

Ishq yo‘lida fano bo‘lay, Haq, Biru bor,
Har na qilsang oshiq qilg‘il, Parvardigor,
Ilkim ochib duo qilay, Izim Jabbor,
Har na qilsang oshiq qilg‘il, Parvardigor.

Oshiq qalbida bu dunyoning zarracha tashvishi bo‘lmaganidek, o‘lim ham uning ko‘ngliga qo‘rquv solmaydi. Aksincha, tasavvufda ishq yo‘lida halok bo‘lish bu – Alloh vasliga erishish uchun Ruhning jismni tark etib oxirat olami sari otlanishi demakdir. Shu ma’noda Ilohga oshiq Yassaviy uchun ham ishq yo‘lida foniy bo‘lish maqsadlardan biridir. Yassaviy bu yo‘lda o‘limdan emas balki bir lahza bo‘lsa ham qalbidan Alloh yodi ko‘tarilishidan qo‘rqadi. Shu niyatda doim duoda bo‘ladi. Har ne bo‘lganda ham, ishq yo‘lida har ne ko‘yga tushganda ham Yaratgandan oshiqlik maqomidan ayirmaslikni iltijo qilib so‘raydi.

Ko‘nglida ishqi bor odamgina tun-u kun poklik va haqiqatning oliy timsoli bo‘lgan Allohga intiladi, nafsga qarshi kurash boshlaydi, bu yo‘ldagi har qanday azoblar, xorlik-u xo‘rliklarga chidaydi. Ishq Ilohni sevish, Unga sig‘inib, nola munojotlar qilishgina bo‘lmasdan, balki Allohni tanish va bu orqali o‘z aslini tanish, kamolotga yetishish yo‘lidir.

Xoja Ahmad Yassaviy ishq va oshiqlik haqida fikr bildirar ekan, *oshig‘liq –ulug‘ ishdir deydi* va ko‘plab hikmatlarida oshiq o‘zi kim, qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak degan savollarga javob beradi , oshiqlarga o‘z nasihat-u maslahatlarini bo‘lishadi.

Oshiq uldir, Haqqa jonin qurbon qilsa,
Zikrin aytib, chorzarb urib sahar tursa,
Eranlardin fayz-u futuh to‘la olsa,
Sulton bo‘lub durru gavhar sochar, do‘stlar.

Oshiqlikning belgisi –xokisorlik, kamtarinlik, sidq-u sodiqlik. Oshiq bo‘lgan odam o‘zini barchadan kam deb hisoblashi, boshiga kelgan balolarga mardonavor chidashi, manmanlik, g‘urur va takabburni, xasad-xirs kabi salbiy xislatlarni tark etishi kerak. Faqat bugina emas, ta’ma va manfaat timsoli bo‘lmish dunyoni ham tark etishi kerak. Chunki to dunyoning o‘zini tark etmasa, nafs ta’masidan xalos bo‘lolmaydi kishi. Iloh oshig‘i tariqat talablarini so‘zsiz bajarib, faqr martabasidan fano sari intiladi. Kishining qabliga Haq ishqining zarra miqdori tushsa, insonni betoqat qilib, dunyo va undagi barcha narsalardan voz kechadi. Bu haqida tasavvufda mashhur bo‘lgan rivoyat ham mavjud.

Xoja Ahmad Yassaviy bu haqida yana bir hikmatida shunday deydi:

Haq rahmati ulug‘ daryo, bir qatra bas,
Qatrasidin bahra olg‘an qilmas havas,
Movumanlik sendin ketar misli magas,
Haq jamolin ko‘rsatmasa zomin bo‘lay.

Demak, ilohiy ishq nafsni yengishning eng yaxshi vositasidir. Dunyo muhabbatidan yuz o‘girib, ilohiy ma’rifatni egallagan odam, dunyoviy-nafsoniy sifatlarga barham berib, ilohiy sifatlarni o‘zlashtiraveradi. Nihoyatida esa Allohning o‘ziga qo‘shiladi, ya’ni Zotda foniy bo‘ladi. Muhabbatning xotimasi fanodir. Shu bilan so‘fiy ilohiy Zotning bir qismi ekanini isbotlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ilohiy ishq tasavvuf she’riyatining bosh mavzularidandir. Yaratganning yodi ila yashamoq, vasli umidi bilan nafas qolish so‘fiy shoirlarni U zotning benihoya go‘zalliklarini she’rda tarannum etishga undagan bo‘lsa ne ajab. Turkiston piri Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining asosida ham ana shu betakror, buyuk ishq va muhabbat yotadi. Yassaviy ishq haqida mudom hikmatlar tili bilan kuylaydi. Ishqni goh azob, goh, rohat, goh dard, goh darmon sifatida ko‘radi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Н. Комилов Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr –O‘zbekiston, 2009 –Б.50
2. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007, 27-bet.
3. Н. Комилов Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr –O‘zbekiston, 2009 –Б.57
4. Imom G‘azzoliy. Mukoshafatul-qulub. - Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018, 40-bet.
5. Яссавий А. Девони ҳикмат. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа, 1992 –Б 208
6. Яссавий А. Девони ҳикмат. – Тошкент: Моваройннаҳр, 2006. – 271 б.

7. Адабиёт назарияси. II том . –Тошкент : Фан, 1978. – 448 б.
8. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. –Б. 300